

МУҒАЛЛИМ ҲАМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИҮ

Илимий-методикалық журнал



№ 5/2 2023



*гуманитарные науки
естественные науки
технические науки*

МУҒАЛЛИМ ҲАМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЎ



Илимий-методикалық журнал

2023

5/2-сан

*Ўзбекистон Республикасы Министрлар Кабинети жанындагы
Жоқарғы Аттестация Комиссиясы Президиумының
25.10.2007 жыл (№138) қарары менен дизимге алынды*

*Қарақалықстан Баспа сөз хәм хабар агентлиги тәрепинен
2007-жылы 14-февральдан дизимге алынды.
№01-044-санлы гууалық берилген.*

Нөкис

5/2-сан 2023

октябрь

Шөлкемлестіріушілер:

*Қарақалтақстан Республикасы Халық билимлендириу Министрлиги,
ӨЗПНИИ Қарақалтақстан филиалы*

**Редактор:
А. Тилегенов**

Редколлегия ағзалары:

Мақсет АЙЫМБЕТОВ
Нағмет АЙЫМБЕТОВ
Байрамбай ОТЕМУРАТОВ
Ерполат АЛЛАМБЕРГЕНОВ
Алишер АЛЛАМУРАТОВ
Дилшодхўжа АЙТБАЕВ
Тўлқин АЛЛАЁРОВ
Умида БАХАДИРОВА
Фархад БАБАШЕВ
Гулзода БОЙМУРОДОВА
Шахло БОТИРОВА
Маманазар ДЖУМАЕВ
Асқар ДЖУМАШЕВ
Алишер ЖУМАНОВ
Гўлнара ЖУМАШЕВА
Холбой ИБРАГИМОВ
Умида ИБРАГИМОВА
Меруерт ПАЗЫЛОВА
Асқарбай НИЯЗОВ
Сабит НУРЖАНОВ

Уролбой МИРСАНОВ
Нуржан МАТЧАНОВ
Шукурулло МАРДОНОВ
Бахтиёр РАХИМОВ
Фурқат РАЖАБОВ
Арзы ПАЗЫЛОВ
Барлықбай ПРЕНОВ
Феруза САПАЕВА
Қаххор ТУРСУНОВ
Нурзода ТОШЕВА
Тажибай УТЕБАЕВ
Амангелди КАМАЛОВ
Ризамат ШОДИЕВ
Зафар ЧОРШАНБИЕВ
Рустам ФАЙЗУЛЛАЕВ
Дўстназар ХИММАТАЛИЕВ
Умид ХОДЖАМҚУЛОВ
Гулрухсор ЭРГАСHEBA
Гавхар ЭШЧАНОВА

МАЗМУНЫ

ТИЛ ҲАМ АДЕБИЯТ

| | |
|--|----|
| Мадалиев Я.Х. Абай ижодий метросида адабий қарашлар | 7 |
| Dosanov N. O'zbek tilida izohlovchilarning leksik-semantik xususiyatlari | 17 |
| Musurmankulova M.N. Metaphorical rethinking architectural concepts | 20 |
| Berdiev B.Ch. Healthy lifestyle in the educational system in connection with belt wrestling | 27 |
| Isaqova E.D. The analysis of appearance of feelings in the english and uzbek languages | 31 |

ПЕДАГОГИКА, ПСИХОЛОГИЯ

| | |
|---|-----|
| Palwaniyazov M. Xaliq pedagogikasining ajayib tarbiya qurallari | 40 |
| Radjarova Z.T., Mirzayeva G.Z. Integratsiyalashgan ta'limning pedagoglarni tarbiyalashdagi afzalliklari | 45 |
| Turaqulov B.H. Ta'lim muhitida intellekt va kompetentlik tushunchalari | 49 |
| Abdujabbarova M.L., Davlatov O.G'. Talabalarning axborot xavfsizligini ta'minlashda kompetensiya va kompetentlikning ahamiyati | 56 |
| Azizova S.A. Oliy ta'lim muassasalari talabalarini media kompetentligini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalarni urni | 61 |
| Ismanova M.A. Talabalarda kasbiy-kreativ ko'nikmalarni shakllantirishning ijtimoiy-pedagogik zarurati | 66 |
| Tashpulatova D.M. Maktab ta'limida tabiiy fanlarni integratsion o'qitish metodikasi | 70 |
| Kuchkinov A.Yu. Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalarida raqamli ta'lim orqali ekopedagogik kompetentligini rivojlanishida eko-steam yondashuvning imkoniyatlari | 74 |
| Aktamov F.S. Ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarning tadbiq etishning zamonaviy tendensiyalari va rivojlantirish omillari | 80 |
| Quzmanova G.B. O'quvchilarning ijtimoiy kompetentligini ijtimoiy tarmoqlar vositasida rivojlantirishda maktab umumiy fanlarining o'rnini | 88 |
| Tilavova S.B. Boshlang'ich ta'limda raqamli texnologiyalar orqali bo'lajak o'qituvchilarning ekologik kompetentligini steam yondashuv asosida takomillashtirish yo'llari | 92 |
| Umarova Z.A. Maktab ta'limida pedagogik konfliktlarning tarkibi va ularni bartaraf etish xususiyatlari | 99 |
| Islamova D.B. Tutingan ota-onalar va bolalar bilan ishlashda psixologik moslashuv metodikalari tavsifi | 106 |
| Xanbabayev X.I. Raqamli kompetensiyani rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik xususiyatlari | 112 |
| Mirzayev A.M. Harbiylashtirilgan ta'lim muassasalarida klaster yondashuv asosida kursantlarni belbog'li kurashga o'rgatish | 118 |
| Abduraqimova D.A. Bujajak ofitserlarda harbiy vatanparvarlik tuygusini rivojlantirishning milliy-ma'naviy va axloqiy asoslari | 125 |
| Azizova S.A. Kredit tizimi asosida fanlararo integratsiyani rivojlantirish | 131 |
| Эшбеков С.Ж. Ёшларни харбий ватанпарварлик руҳида тарбиялаш жараёнларини такомиллаштиришнинг самарали шакл, метод ва воситалари | 134 |
| Эшбеков С.Ж. Ёшларни харбий ватанпарварлик руҳида тарбиялаш тизимини такомиллаштиришнинг ижтимоий-психологик хусусиятлари | 142 |
| Bozorov Z. Yu. Ta'lim sifatini oshirish bugungi kunning dolzarb masalasi | 146 |
| Xujaniyozova O.R. Muayyan yoshdagi maktab o'quvchilari bilan samarali ishlashda maktab psixologiyasi faoliyatining ahamiyati | 150 |
| Xolmatova S. K. Mustaqil ta'limni tashkil etishda interfaol ta'lim texnologiyalardan foydalanish | 157 |
| Xolmatova S.K. Talabalarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishda mustaqil ishlarning ahamiyati | 163 |
| Махкамов У.И., Тешакулова Б.Ш. Бўлажак ўқитувчиларда педагогик маҳорат маданиятини ривожлантириш | 167 |



MAKTAB TA'LIMIDA PEDAGOGIK KONFLIKTLARNING TARKIBI VA ULARNI BARTARAF ETISH XUSUSIYATLARI

Umarova Z.A.

pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti "Boshlang'ich ta'lim metodikasi"
kafedrası dotsenti*

Tayanch so'zlar: o'quvchilar, maktab, ijtimoiy, ta'lim, konflikt, tarkib, xususiyat, yondashuv, metodika, bilim, ko'nikma, rivojlantirish.

Ключевые слова: учащиеся, школа, социальная, школьная, образовательная, конфликтная, содержание, характеристика, подход, методика, знания, умения, развитие.

Key words: students, school, social, school, educational, conflict, content, characteristics, approach, methodology, knowledge, skills, development.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11 maydagi PF-134-son Farmoni bilan tasdiqlangan "2022-2026-yillarda xalq ta'limimni rivojlantirish bo'yicha Milliy dastur"da umumiy o'rta ta'lim maktablarini zamonaviy va innovatsion jamiyat talablari asosida rivojlantirish vazifalari qo'yilgan va bugungi kunda ularni amalga oshirish jarayoni kechmoqda[1]. Shu jihatdan umumiy o'rta ta'lim maktablarida uchraydigan pedagogik konfliktlar tipologiyasi muammolarini tadqiq etish dolzarb bo'lib turibdi. Bu o'rinda e'tiboringizni ana shu masalaning pedagogik konfliktlarning tarkibi tahliliga tortamiz.

Pedagogik konfliktlarning tarkibi masalasi mamlakatimiz va jahon xalqlari pedagog olimlari tomonidan muntazam kelinayotganligini ta'kidlab o'tish joiz[2]. Ayni paytda, pedagogik konfliktlarning tarkibi pedagogik konfliktlar tipologiyasining muhim qismi sifatida tadqiq etilgan emas. Shu jihatdan bizning yondashuvimizga ko'ra, umumiy o'rta ta'lim maktablarida uchraydigan pedagogik konfliktlarning tarkibi masalasida quyidagilar muhim o'rin tutadi:

1. Pedagogik konfliktlarning makro tarkibi. "Makro" tushunchasi lotincha bo'lib, katta, yirik ma'nolarini anglatadi [3]. Shu jihatdan pedagogik konfliktlarning makro tarkibi - bu bizning yondashuvimizga ko'ra, maktab miqyosida uchraydigan pedagogik konfliktlardan iborat. Uning makro ekanligi shundan iboratki, pedagogik konfliktlar butun maktab jamoasini – o'qituvchilar,

rahbarlar, xodimlar va o'quvchilarni qamrab olishi bilan xarakterlanadi. Unga ko'ra, maktab miqyosida mavjud bo'lgan pedagogik konfliktlar ijtimoiy, pedagogik va psixologik xususiyatlarga ega bo'ladi.

O'rganishlar va tahlillar shuni ko'rsatdiki, pedagogik konfliktlarning makro tarkibiga quyidagi xususiyatlar xos:

1) pedagogik konfliktlarning makro tarkibi muayyan vaziyat, holat va sharoitlar asosida tabiiy holda yuzaga keladi;

2) bunday pedagogik konfliktlar ko'p hollarda salbiy xususiyatlar va ta'sirga egaligi bilan namoyon bo'lib turadi;

3) mazkur pedagogik konfliktlarni o'rganish va ularni muntazam bartaraf etib borish taqozo etiladi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida pedagogik konfliktlarning makro tarkibi vaziyat, holat va sharoitlar asosida yuzaga keladi. Misol uchun, maktab rahbariyati bilan maktab Pedagogik jamoasi o'rtasida kelib chiqadigan vaqtinchalik anglashshilmovchiliklarga aniq vaziyat asos bo'ladi, bunday vaziyatlar ko'p hollarda o'tkinchi xarakterda bo'ladi. Shuningdek, ta'lim va tarbiya jarayonida maktab jamoasi va sinf rahbarlari o'rtasida yuzaga keladigan tushunmovchiliklarga holatlar sabab bo'ladi, bunda ko'pincha sinf rahbarlarining o'quvchilar manfaatlarini himoya qilishi birlamchi sabab hisoblanadi. Bundan tashqari, umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi muayyan sharoitlar o'qituvchilar va sinf rahbarlari o'rtasida ba'zi bir bahslarga asos bo'ladi. Shu sababli vaziyat, holat va sharoitlar omiliga ko'ra pedagogik konfliktlar yuzaga keladi. Bunday pedagogik konfliktlarning negizi manfaatlarni himoya qilish hisoblanadi. Shu jihatdan ingliz olimi Jon Palmerstonning quyidagi fikri esga tushadi: "Biz uchun doimiy hamkorlar yoki dushmanlar yo'q, aksincha, biz uchun doimiy manfaatlar mavjud"[4]. Shu jihatdan umummmaktab miqyosida yuzaga keladigan makro pedagogik konfliktlar manfaatlar to'qnashuvining hosilasi hisoblanadi.

Makro tusdagi pedagogik konfliktlarga ko'p hollarda salbiy xususiyatlar va ta'sir kuchlar mavjud bo'ladi. Misol uchun, maktab rahbari hamisha o'z nuqtai nazarining maktab jamoasi tomonidan qabul qilinishini istaydi va natijada maktab jamoasi o'z huquqlarini cheklangan deb his qiladi. Xuddi shuningdek, maktab rahbari va sinf rahbarlari o'rtasida ham ko'p hollarda salbiy xarakterdagi kelishmovchiliklar mavjud bo'ladi va buning sababi maktab rahbarining qat'iy xatti-harakatlardadir. Albatta, me'yoriy-huquqiy hujjatlarga asosan bunday makro tusdagi pedagogik konfliktlarni o'z vaqtida bartaraf etish taqozo etiladi. Chunki me'yoriy-huquqiy hujjatlarga, masalan, maktab Nizomiga asoslanish manfaatlar to'qnashuvi asosida yuzaga kelgan pedagogik konfliktlarni oqilona hal etish yo'li hisoblanadi.

Pedagogik konfliktlarning makro turlarini muntazam o'rganib borish va ularni bartaraf etish yo'llarini topish dolzarb masalalardan hisoblanadi. Chunki bunday pedagogik konfliktlar turlari bartaraf etilmasa, ko'p hollarda keskin tusdagi mojarolarga sabab bo'ladi. Shu sababli ko'p umumiy o'rta ta'lim maktablarida muhitning murakkab ekanligi yuzaga keladi. Bizning yondashuvimizga ko'ra, makro tusdagi pedagogik konfliktlarni bartaraf etishning eng maqbul yo'li o'qituvchilar va maktab rahbariyatining pedagogik konfliktlar bo'yicha ko'nikma va malakalarga ega bo'lishidir. Kezi kelganda ta'kidlash lozimki, 2022-2023 o'quv yilidan boshlab umumiy o'rta ta'lim maktablari direktorlari maxsus menejerlik sertifikatiga asosan tanlanadi va tuman (shahar) xalq deputatlari Kengashlari bilan kelishilgan holda lavozimga tayinlanadi. Bunday mexanizm umumiy o'rta ta'lim maktablarida makro turdagi pedagogik konfliktlarni bartaraf etishning o'ziga xos omillaridan hisoblanadi.

E'tibor berilsa, pedagogik konfliktlarning makro turlarini o'rganish va maktab miqyosida hal etishning o'ziga xos yo'llari mavjud.

2. Pedagogik konfliktlarning mezo tarkibi. "Mezo" atamasi lotincha bo'lib, o'rta bo'g'in ma'nolarini anglatadi. Shu jihatdan pedagogik konfliktlarning mezo tarkibi sinflar miqyosida bo'ladi. Bunday pedagogik konfliktlar muayyan sinfning o'zida va sinflar kesimida yuzaga keladi. Muayyan sinfda yuzaga keladigan pedagogik konfliktlar o'qituvchilar, sinf rahbari va o'quvchilar o'rtasida kechadi. Sinflar kesimida paydo bo'ladigan pedagogik konfliktlar ikki yoki bir necha sinflarning o'rtasida raqobat tusidagi ko'rinishda namoyon bo'ladi. Bugungi kunda mamlakatimizning umumiy o'rta ta'lim maktablarida bir bosqichning o'zida bir necha sinflar mavjud (masalan, 6 "A", "B", "V" va hokazo sinflar). Shuni ta'kidlash lozimki, sinflar kesimida tarkib topadigan pedagogik konfliktlarning sabablarini biz faqat raqobat omilida ko'ramiz va hech qachon sinflar kesimida manfaat omili ustuvor bo'lgan pedagogik konfliktlar kuzatilmaydi. Shu jihatdan pedagogik konfliktlarning mezo tarkibiga quyidagi xususiyatlar xos bo'ladi:

- 1) maktab sharoitidan ustuvor darajada foydalanishga intilish;
- 2) ta'lim va tarbiya jarayonida yetakchi bo'lishga intilish;
- 3) o'quvchilarning nisbatan namunali bo'lishiga intilish.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida uchraydigan pedagogik konfliktlarning mezo tarkibida sinflarning maktab sharoitida ustuvor darajada foydalanishga intilishi ko'p hollarda asosiy omil hisoblanadi. Misol uchun, o'quv adabiyotlarning yangi nashriga ega bo'lish, jihozlarning zamonaviy turlarini egallashga intilish yoki eng qulay sinflarga ega bo'lishga bo'lgan xatti-harakatlar sinflar o'rtasida muddatli anglashilmovchiliklarni keltirib chiqaradi. Shu sababli

keyingi paytlarda davlat ta'lim siyosatida sinflar va laboratoriyalarni yagona standartlar asosida jihozlash mexanizmi amalga oshirilmoqda. Shuningdek, har yili yangi avlod o'quv adabiyotlari bilan ta'minlash yo'lga qo'yilgan. Bu omillar sinflar o'rtasida yuzaga keladigan muddatli pedagogik konfliktlarni bartaraf etish uchun muhim asos bo'lib xizmat qiladi.

Kezi kelganda ta'kidlash lozimki, O'zgbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 11 maydagi PF-134-son Farmoni bilan tasdiqlangan "2022-2026 yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha Milliy dastur"da "davlat umumiy o'rtata'lim muassasalariga (ya'ni maktablarga –Z.U.) xalq ta'limi vazirligi bilan kelishilgan holda o'quv jarayoniga xalqaro tan olingan ta'lim dasturlarini joriy qilish, shu jumladan, davlat ta'lim standartlari doirasida o'quv dasturlariga o'zgartirish kiritish hamda darslaiklarni tanlash" huquqi berilgan. Bunga Ona tili, Adabiyot, Tarix va Huquq fanlari kirmaydi. Demak, tabiiy va aniq fanlar bo'yicha xalqaro ta'lim dasturlari hamda darsliklarini tanlash umumiy o'rta ta'lim maktablari ixtiyorida bo'ladi. Bu hol umumiy o'rta ta'lim va tarbiya jarayonini kuchaytirgani holda, unga nisbatan mutaxassislarning hamda ekspertlarning ishtiroki asosida munosabatda bo'lishini taqozo etadi. Shu jihatdan PISA, TIMSS kabi xalqaro baholash ta'lim dasturlarining amaliyotga tadbiq etilishi jarayonida umumiy o'rta ta'lim maktablarida pedagogik konfliktlarning mezo turlari ko'lami kengayishi ehtimoli mavjud va shu sababli bu jarayonga maktab jamoasi tayyor turishi kerak. Chunki sinflar o'rtasida xalqaro baholash ta'lim dasturlarini joriy etish bo'yicha raqobat ko'rinishidagi munosabatlar yuzaga keladi.

Pedagogik konfliktlarning mezo takribida sinflarning ta'lim va tarbiya bo'yicha yetakchi bo'lishga intilishi omillari ham muhim ahamiyatga ega. Bu hol ayniqsa, turdosh sinflar o'rtasida qat'iy ravishda yuzaga keladi va shu sababli sinf rahbarlari hamda o'qituvchilarning pedagogik konfliktlar bo'yicha ko'nikmaga ega bo'lishi taqozo etiladi. Keyingi paytlarda sinflarning muvaffaqiyatlari o'quvchilarning Respublika yoki xalqaro miqyosdagi fan olimpiadalarida ishtirok etishiga qarab baholash an'anasi tarkib topdi. Biroq bu hol sinf o'quvchilarining o'zlashtirish darajasini baholashda asosiy mezon hisoblanmaydi, chunki bugungi kunda 20 dan ortiq fan olimpiadalari bir o'quv yilida o'tkazilmoqda. Shu jihatdan bunday holatlar sinflar o'rtasida mezo turdagi pedagogik konfliktlarning muntazam mavjud bo'lishiga asos bo'ladi. Buning eng maqbul bartaraf etish yo'llaridan biri o'quvchilarning o'zlashtirishini aniq baholashdadir va fan olimpiadalari, konkurslar yoki tanlovlar bu borada qo'shimcha mezon hisoblanishi kerak.

Umumiy o'рта ta'lim maktablari har bir sinf o'qituvchilari va sinf rahbarlari o'z o'quvchilarini namunali bo'lishiga intiladi va bu yondashuv to'g'ri bo'lib, o'quvchilarga motivatsiya beradi. Ayni paytda, sinflar kesimida o'quvchilarni namunali ko'rsatish bo'yicha manfaat tusidagi pedagogik konfliktlar ko'rinishlari paydo bo'ladi. Shu sababli bu boradagi yondashuvlar pedagogik va psixologik qonuniyatlarga asoslanishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Misol uchun, bizning yondashuvimizga ko'ra, har bir sinf o'quvchilarining ichki namunaligi mavjud va shu jihatdan o'quvchilarning namunali bo'lishiga bo'lgan intilishlar hamda xatti-harakatlar sinflar kesimida muayyan mezonlarga asoslanishi kerak. Negaki o'quvchilarning ko'pchiligi bilimli va axloqli bo'lgani holda, ijtimoiy faollik masalasida sustlik qilishi mumkin. Buning uchun sinflar o'qituvchilari va rahbarlari o'zaro munosabatlarda o'quvchilarga xos bo'lgan individuallikdan kelib chiqib namunali ko'rsatish mezoniga asoslanishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Diqqat qilinsa, pedagogik konfliktlarning mezo tarkibi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ular tabiiylik va muddatlilik qonuniyatlariga asosan yuzaga keladi. Bu hol o'qituvchilar, sinf rahbarlari va xodimlarning (maktab psixologi, hamshirasi, kutubxona xodimlarining) pedagogik konfliktlar bo'yicha tegishli bilim va ko'nikmaga ega bo'lishini taqozo etadi. Oliy pedagogik ta'lim jarayonida mazkur masalalarga diqqat qilish maqsadga muvofiq bo'ladi.

3. Pedagogik konfliktlarning mikro tarkibi. "Mikro" atamasi lotincha bo'lib, kichik, kichik bo'g'in ma'nolarini anglatishi ma'lum. Shu jihatdan umumiy o'рта ta'lim maktablarida uchraydigan pedagogik konfliktlarning mikro tarkibi muayyan sinfning o'quvchilar guruhi miqyosida kechadi. Unga ko'ra, muayyan sinfning o'quvchilari guruhlar ko'rinishida shakllandi va natijada o'quvchilar guruhlari o'rtasida muddatli va raqobat tusidagi pedagogik konfliktlarning ko'rinishlari paydo bo'ladi. Shuni ta'kidlash lozimki, o'quvchilar guruhlari o'rtasidagi pedagogik konfliktlarda manfaatdorlik nisbatan quyi darajada bo'ladi va unda ko'p hollarda guruhning manfaatlari ilk rejaga chiqadi. Bunday guruhlarning mavjud bo'lishi salbiy hodisa emas, aksincha, ta'lim va tarbiya jarayonini o'zlashtirishdagi intilishning kuchayishidir. Shu jihatdan pedagogik konfliktlarning mikro tarkibiga quyidagi xususiyatlar xos bo'ladi:

- 1) o'quvchilar guruhining yetakchilikka intilishi;
- 2) o'quvchilar guruhining tashkiliy ishlarda faol bo'lishiga intilishi;
- 3) o'quvchilar guruhining o'qituvchilar bilan yaqin munosabatga bo'lishiga intilishi.

Pedagogik konfliktlarning mikro tarkibida muayyan sinfdagi o'quvchilar guruhining yetakchilikka intilishi vaqtinchalik tushunmovchiliklarga asos

bo'лади. Shu sababli bunday tushunmovchiliklar o'qituvchilar va sinf rahbari tomonidan nazoratga olinishi taqoza etiladi. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, ko'p hollarda o'quvchilar guruhlarining yetakchilikka intilishi mezo va makto miqyosdagi pedagogik konfliktlarning paydo bo'lishiga asos bo'лади. Bu hol o'quvchilarning yosh xususiyatlari bilan izohlanadi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida uchraydigan pedagogik konfliktlarning mikro tarkibida o'quvchilar guruhlarining tashkiliy ishlarda faol bo'lishga intilishi minimal darajadagi kelishmovchiliklarga asos bo'лади. Misol uchun, bayramlar tadbirlarini o'ziga xos va betakror o'tkazishga bo'lgan intilishlar sinf yoki maktabning imkoniyatlaridan birinchi bo'lib foydalanish harakatini keltirib chiqaradi. Natijada, o'quvchilar guruhleri o'rtasidagi tashkiliy faollikka nisbatan o'zaro bahslar, tortishuvlar va hatto ba'zida kelishmovchiliklar kelib chiqadi. Buning uchun o'quvchilarning ogohliligi va sezgirligi muhim ahamiyatga ega. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, Bolalar yoki Yoshlar tashkilotlari ko'p hollarda tashkiliy jihatdan uyushgan o'quvchilar guruhi bilan ishlashga harakat qilishadi va natijada o'quvchilarning o'ziga guruhlarida bunday holatga nisbatan salbiy munosabatlar yuzaga keladi.

Pedagogik konfliktlarning mikro tarkibida ko'p hollarda o'quvchilar guruhlarining o'qituvchilar bilan yaqin munosabatga bo'lishga bo'lgan intilish vaqtinchalik anglashilmovchiliklarning kelib chiqishiga sabab bo'лади. Shu sababli o'qituvchilar, sinf rahbarlari, Bolalar va Yoshlar tashkilotlari mas'ullari o'quvchilar guruhleri bilan teng ishlashga rioya qilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Pedagogik tajribalar shuni ko'rsatadiki, o'quvchilar o'rtasida shakllangan guruhlarga nisbatan ko'pincha o'qituvchilarning salbiy munosabatda bo'lishi kuzatiladi. Aksincha, tabiiy ravishda tarkib topgan o'quvchilar guruhi oqilona boshqarilishi va guruhlarning imkoniyatlaridan ta'lim-tarbiya jarayonida kuchaytirishda foydalanish kutilgan samarani beradi. Chunki bizning yondashuvimizga ko'ra, tabiiy ravishda tarkib topgan o'quvchilar guruhi jamoaning tarkib topishiga asos bo'лади, negaki muayyan hamfikirlik asosida o'quvchilarning guruhlari yuzaga keladi. Shu sababli bunday o'quvchilar guruhlaridan pedagogik konfliktlarning ko'rinishlarini bartaraf etishda foydalanish maqsadga muvofiq bo'лади.

Shunday qilib umumiy o'rta ta'lim maktablarida pedagogik konfliktlarning makro (maktab miqyosida), mezo (sinflar miqyosida) va mikro (o'quvchilar guruhlari miqyosida) tarkiblari mavjud bo'лади. Bu pedagogik konfliktlar muntazam ravishda o'rganilib borilishi, bartaraf etilishi va boshqarishni taqoza etadi.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 11 maydagi PF-134-son Farmoni bilan tasdiqlangan "2022-2026 yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha Milliy dastur".// www.google.uz.
2. Ахмедова М.Т. Педагогик конфликтология. –Т., 2020. Эрназарова Г.О., Исламова М.Ш. Педагогик конфликтология. –Т., 2021.
3. Зеркин Д.П. Основы конфликтологии. – Ростов-на-Дону, 1998. Анцупов А.Я., Шипилов А.И. Конфликтология. – Москва, 2000.
4. Гаврилюк Н.П., Зыкова Н.А. Педагогическая конфликтология. –Нижегородск, 2020 ва ҳ.к.
5. Ҳасанбоев Ж. ва бошқ. Педагогика фанидан изоҳли лугат.- Тошкент, 2009
6. Jabbrova O., Umarova Z., Babaxodjaeva L. Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiyasi. -T.: "Malik Prin Ko". 2021.
7. Jabbrova O., Umarova Z. Boshlang'ich ta'limda "Tarbiya" fanini o'qitish metodikasi. –T.: "Zebo Print". 2022.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada maktab ta'limida pedagogik konfliktlarning tarkibi va ularni bartaraf etish masalalari tahlil etilgan, umumiy o'rta ta'lim maktablarida pedagogik konfliktlarning makro (maktab miqyosida), mezo (sinflar miqyosida) va mikro (o'quvchilar guruhlar miqyosida) tarkiblarini rivojlantirish haqida fikr yuritilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье анализируется содержание педагогических конфликтов в школьном образовании и вопросы их преодоления, рассматривается развитие макро (в масштабе школы), мезо (в масштабе класса) и микро (в масштабе групп учащихся) содержания педагогических конфликтов в средних общеобразовательных школах.

SUMMARY

This article analyzes the content of pedagogical conflicts in school education and the issues of overcoming them, examines the development of macro (school-scale), meso (class-scale) and micro (on the scale of groups of students) content of pedagogical conflicts in secondary schools.

ISSN 2181-7138

Т. Н. Қары Ниязий атындағы Өзбекстан педагогикалық
илим-изертлеу институтының Ж. Орынбаев атындағы Қарақалпақстан филиалы

**«МУҒАЛЛИМ ҲӘМ ҮЗЛИКСИЗ
БИЛИМЛЕНДИРИЎ»**

№ 5/2

Нөкис — 2023

Басып шығыўға жуўапкер:

А. Тилегенов

Баспаға таярлаған:

А. Тилегенов, Р. Утепов

Компьютерде таярлаған:

П. Реймбаев

Мәңзил: Нөкис қаласы, Ерназар Алакөз көшеси №54

Тел.: 224-23-00

e-mail: uzniipnkkf@mail.uz,

mugallim-pednauk@mail.uz

www.mugallim-uzliksiz-bilim.uz

Журналға келген мақалаларға жуўап қайтарылмайды, журналда жарияланған мақалалардан алынған үзіндилер «Мугаллим ҳәм үзликсиз билимлендириў» журналынан алынды, деп көрсетилиўи шәрт. Журналға 5-6 бет көлеминдеги материаллар еки интервалда TIMES NEW ROMAN шрифтинде электрон версиясы менен бирге қабыл етиледи. Мақалада келтирилген мағлұматларға автор жуўапкер.

Оригинал-макеттен басыўға рухсат етилди 20.10.2023. Форматы 70x100¹/₈

«Таймс» гарнитурасында офсет усылында басылды.

Шәртли б.т. 27. Нашр. т. Нускасы _____ Буйыртпа №

